

ONA TILI DARSLARIDA IMLOVIY SAVODXONLIK USTIDA ISHLASH

Yuldashova Shoira Kamiljanovna*Magistr: Qoraqalpoq davlat universiteti***Yuldashova Shoira Kamiljanovna***Master: Karakalpak State University*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish masalalari, uning ahamiyati va rivojlantirish usullari yoritilgan. Imloviy savodxonlikni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni, xatolar ustida ishlash va yozma ishlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Maqolada o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ham berilgan.

Tayanch so‘zlar: ona tili, imloviy savodxonlik, yozma nutq, diktant, xatolar ustida ishlash, orfografiya, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, o‘quv jarayoni, metodika, savodxonlikni rivojlantirish.

Annotation. This article examines the issues of improving students' spelling literacy in native language classes, its significance, and methods of development. It analyzes the role of practical activities alongside theoretical knowledge in the formation of spelling skills, as well as the effectiveness of dictations, written assignments, and error correction practices. Furthermore, the article presents ways to develop students' written communication through the use of modern pedagogical approaches and interactive methods. It also provides methodological recommendations for teachers.

Keywords: native language, spelling literacy, written speech, dictation, error correction, orthography, pedagogical approach, interactive methods, learning process, methodology, literacy development.

Har bir inson o‘z ona tilini mukammal egallagan taqdirdagina uning tafakkuri, dunyoqarashi va umumiy madaniy saviyasi yuksaladi. Tilning boy imkoniyatlaridan og‘zaki va yozma nutqda erkin foydalana oladigan shaxs boshqa fanlarni ham chuqur o‘zlashtirishga qodir bo‘ladi. Og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini egallagan o‘quvchi kelajakda yetuk mutaxassis sifatida nafaqat ishlab chiqarish, balki ijtimoiy hayotda ham samarali faoliyat yurita oladi. Mustaqil hayotda esa unga ona tilidan olgan bilimlari, savodli o‘qish va yozish

malakalari, ravon va ifodali nutq so‘zlash mahorati, ijodiy fikrlarini vaziyatga mos tarzda bayon eta olish qobiliyati hamda ish hujjatlari bilan ishlash ko‘nikmalari katta yordam beradi.

Ona tili o‘qitishning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri imloviy savodxonlikni rivojlantirishdir. Har bir ona tili o‘qituvchisi barcha darslarda o‘quvchilarning imloviy savodxonligi ustida tizimli ravishda ish olib borishi lozim. Bu narsa o‘quvchining umumiy savodxonligini oshirishga ko‘mak beruvchi birinchi omildir. O‘qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash yo‘llarini belgilab oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi. To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati ham talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina emas, balki tahlil qila bilish ham talab qilinadi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so‘z va so‘z shakllarini ma‘lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan qolipga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Imloni o‘rgatishda o‘quvchilarning amaliy malakalarini asta takomillashtira borish talab etiladi. O‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so‘znigina emas balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq, butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so‘zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu esa yozma nutqni yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, morfemik va so‘z yasallishiga oid materiallarni ma‘lum darajada bilmasdan turib o‘zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Imlo qoidalari shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Bu narsa birinchi navbatda grafika va fonetika bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Jumladan, 5 -sinf ona tili darslaridagi asosiy mavzu va qoidalarning maqsadi, asosan, to‘g‘ri yozishga qaratilgan. Aynan shu sinfdan unli va undoshlarning talaffuzi va imlosi ustida ish olib boriladi. Bunda o‘qituvchi asosiy e‘tiborni tovushlarning qanday talaffuz qilinishi va yozuvda qanday yozilishiga qaratishi lozim. Shundagina bola imlo qoidalarini to‘g‘ri egallash imkoniga ega bo‘ladi. Tilshunoslikning morfemika, so‘z yasallish, morfologiya va sintaksis bo‘limlarini o‘rgatishda ham bevosita imlo qoidalari ustida ish olib boriladi. Masalan, 6-sinfidagi asosiy mavzular morfemika va so‘z yasallish mavzularidan boshlanadi. Bu mavzularni o‘rgatish jarayonida asos va qo‘shimchalarning o‘ziga xos xususiyatlari,

qo‘shimchalarning tasnifi haqida ma‘lumot berilgach, shu bo‘yicha amaliy ishlar bajariladi. Mana shu amaliy ishlar bilan birga ularning imlosi ustida ham ish olib borilsa juda maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

Mashq. Qavs ichidagi so‘zlarga kerakli qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring. Shakl yasovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.

Xalq (tabobat) qulupnay (meva) terlatuvchi, bezgak (xuruj) qarshi omil sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, buyrak (kasallik), o‘t (yo‘l) yallig‘lanishi bilan bog‘liq (kasallik) iste‘mol qilish lozim ko‘riladi.

Olimlarning (fikir) qaraganda, qulupnay buyrakdagi (tosh) yemirish (xususiyat) ega bo‘lishi bilan birga (unda) tosh hosil (bo‘lish) yo‘l qo‘ymaydigan tabiiy omillardan hisoblanadi. (M. Nabiyev)

Darslikda berilgan mana shu mashq shartlarini bajarish jarayonida mashq ichidagi bir qancha so‘zlarning imlosi ustida ishlash mumkin. Jumladan, xalq, xuruj, xususiyat kabi so‘zlarda x undoshining yozilishi hamda qulupnay, bezgak, buyrak, yallig‘lanish, iste‘mol, tabiiy kabi so‘zlarning imlosi ustida ishlansa bolaning yozma nutqini yana bir necha so‘zlar bilan boyitishga erishamiz. Shuningdek, unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin:

1-topshiriq. Berilgan so‘zlar ma‘nosini sharhlang. So‘zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so‘zlar hosil qiling.

Il, in, is, it, ip, ish ...; el, ep, em, esh, et, en, er, es, ez...;

choy, soy, toy, boy, moy, joy, loy, voy ...;

2-topshiriq. a unlisi bilan boshlanuvchi bir bo‘g‘inli so‘zlar qatorini tuzing. Ma‘nolarini sharhlang.

Adl, avj, azm, aql ark ...

3-topshiriq. u - o‘ tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: uz - o‘z, uy - o‘y, un - o‘n, o‘q - uq ... Ma‘nolarini sharhlang.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o‘quvchilarning qoida ifodasini o‘rganib olishlari, qoidaning yozuv tajribasiga tadbiiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi. Qoida mohiyatini ochish qoida so‘zning qaysi qismini, qaysi so‘z turkumi yoki grammatik shaklini yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O‘quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o‘qituvchi bu yetakchi belgilarni, albatta, hisobga olishi lozim. Masalan, 5-sinfda «Qator undoshli so‘zlar», «Qo‘sh undoshli so‘zlar» mavzulari o‘rganiladi. Dars jarayonida shunday so‘zlar haqida ham nazariy ma‘lumot beriladi, ham amaliy ishlar bajariladi. Masalan:

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing. Qanday talaffuz qilinayotganiga diqqat qiling. Yonma-yon kelgan bir xil undoshning bittasi deyarli eshitilmaydigan so‘zlarni ajratib, daftaringizga yozing.

Quvvat, izzat, karra, murabbiy, munaqqid, taassurot, taajjub, taalluqli, million, minnatdor, komissiya, milliard, qassob, hissa, grammatika, iffat.

Qo‘sh undoshlar bo‘yicha darslikdagi yuqoridagi mashq bajarilgandan keyin shu mavzuga doir juda muhim bo‘lgan qoidalarni o‘rgatish va shu qoidalar ustida amaliy mashqlar bajarish kerak. Asosan, quyidagi qoidalarning barchasini bola mukammal bilsagina shu so‘zlarning imlosida xatolikka yo‘l qo‘ymaydilar:

Ba‘zi so‘zlarda qo‘sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: quvvat, chaqqon.

Ayrim chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qo‘sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo‘sh undosh bilan yoziladi: million, komissiya, artilleriya.

Gramm, metall, kongress kabi so‘zlar oxirida kelgan qo‘sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalangani. Bunday undosh bilan tugagan so‘zlarga shunday tovush bilan boshlanadigan qo‘shimchalar qo‘shilganda, qo‘sh undoshning biri yozilmaydi: metallar.

O‘quvchilar yozma nutqini o‘stirish, avallo, egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasi bilan bog‘liqdir. O‘quvchi savol va topshiriqlar asosida berilgan mashqlarni bajarar ekan, u grammatika qoidalarini yozma nutqda qo‘llashga harakat qiladi. Buning uchun har bir o‘rganilgan qoida mashqlar bilan mustahkamlanib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyidagi mashqlar ham imlo qoidalarini mustahkamlashda qo‘l keladi:

Topshiriq. So‘zlarni ko‘chiring. Tarkibida ikki xil undosh yonma-yon kelgan so‘zlarning tagiga chizing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Himmat, pand-nasihati, maslahat, baxt, do‘stlik, g‘isht, tabassum, farzand, foyda, qirq, to‘xtamoq, o‘rtoq, transport, ilhom, ko‘rk, mashina, stul, ulkan, aql, daraxt.

Topshiriq. Mehr, sabr, sayr, ilm so‘zlari talaffuzi va yozilishini tahlil qiling. Shunday so‘zlar qatorini kengaytiring.

Bir bo‘g‘inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so‘zlar qator undoshli so‘zlardir. Qator undosh bilan tugagan ba‘zi so‘zlar talaffuzida oxirgi undosh deyarli aytilmasada, yoziladi: go‘sh, do‘st, xursand, barg, monand... So‘z boshida qator undoshning kelishi faqat o‘zlashma (boshqa tildan kirgan) so‘zlarga tegishli: stol, broker, bloger... Bu qoidalar o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shuni unutmaslik lozimki, aytilishi va yozilishi o‘zaro taqqoslangan holatlar qoidalarning ahamiyatini yana ham oshiradi: bolalar ulardan so‘z yoki so‘z shaklini qanday talaffuz qilsalar, shunday yozib bo‘lmasligini bilib oladilar. Yuqoridagi imlo qoidalarini mukammal bilgan o‘quvchigina shu so‘zlarni to‘g‘ri

yoʻzish malakasiga ega boʻla oladi. Yoʻzma nutq ustida ishlash ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon boʻlib hisoblanadi. Chunki u oʻquvchidan grammatik va mazmun jihatidan toʻgʻri jumla qurishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turining murakkab tabiati ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq. Soʻzni toʻgʻri yoʻzish, tinish belgilarini oʻrinli qoʻllash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish oʻquvchidan katta masʼuliyatni talab etadi.

Yoʻzma nutq tekshiriladi, kuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Oʻquvchi yoʻzma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslikka intiladi. Yuqorida tilga olingan imlo qoidalarining barchasini toʻliq oʻzlashtirish, shu qoidalarning hammasiga amal qilish orqali erishiladi. Shuning uchun ona tili darslarida imlo qoidalariga qoʻyilgan talabni hisobga olishimiz, unga amal qilishimiz lozim. Bu vazifani unutish yoki bu talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfga qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy, izchil va qatʼiy amal qilinsagina oʻquvchilarda imlo savodxonligi samarali kechadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oʻquvchilar yoʻl qoʻyishi mumkin boʻlgan xatolarning oldini oʻz vaqtida olish savodxonlikni oʻstirishning asosiy garovidir. Oʻqituvchi oʻquvchi tomonidan yoʻl qoʻyiladigan xatolarni quyidagi chora-tadbirlar orqali bartaraf qilishi mumkin:

1. Ona tili darslarida imloviy daqiqaalar oʻtkazish va lugʻat ishini keng yoʻlga qoʻyish.
2. Har darsda oʻquvchilar tomonidan yoʻl qoʻyiladigan umumiy xatolarni aniqlash.
3. Dars jarayonida oʻquvchilarning individual xatolari ustida ishlash va ularni oʻz vaqtida bartaraf qilib borish.
4. Takrorlash darslarida yoki toʻgarak mashgʻulotlarida «Savodxon oʻquvchi» tanlovini tashkil qilish.
5. Oʻquvchilar oʻrtasida turli yoʻzma ishlar tanlovini tashkil qilish.
6. Har bir darsda matn ustida ishlash. Quyi sinfdan boshlab matn daftarlarini tashkil etish.
7. Oʻquvchilar tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolar oldini olishning muhim yoʻli — «Imlo lugʻati» daftarini tashkil etish. Zeroki, oʻquvchining yoʻl qoʻygan xatosi oʻqituvchining nazorat daftarida qayd qilinsa, oʻquvchi qaysi qoidalarni bilmasligi oydinlashadi.

Xullas, ona tili darslari orqali oʻquvchilarning yoʻzma nutqini oʻstirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qoʻllashda katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулаҳатова Р., Юсупова Т., Дўсанов К. Тил таълимида узвийлик ва узлуксизлик. –Т: 2008. – 30 б.
2. Долимов У. ва бошқалар. Иншо ва диктантни қандай ёзиш керак. 1991 йил.
3. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.1-qism. – Т.: “Novda Edutainment”, 2024. – 144 б.
4. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Т.: Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.–224 б.
5. Rahmatullaev Sh. va boshq. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Т.: “O‘qituvchi”, 1995
6. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Т.: 2010.